

“TASDIQLAYMAN”

Chortoq tuman Kambag`allikni
qisqartirish va bandlikka
ko`maklashish bo`limi boshlig`i
M.Nematillayev

“25” 01 2024 yil

Chortoq tuman Kambag`allikni qisqartirish va bandlikka ko`maklashish
bo`limida o`tkazilgan yig`ilish

B A Y O N I № 1

“25” 01 2024 yil

Chortoq shaxri

Yig`ilish raisi:

M.Nematillayev – tuman Kambag`allikni
qisqartirish va bandlikka ko`maklashish
bo`limi boshlig`i

Yig`ilishda qatnashdilar:

Kambag`allikni qisqartirish va bandlikka
ko`maklashish bo`limi boshlig`i, bo`lim
o`rinbosari, davlat mehnat huquq
inspektorlari, bo`lim mutaxassislari va
barcha xodimlar

KUN TARTIBIDAGI MASALA:

Mahallada tadbirkorlikni rivojlantirish, aholi bandligini ta`minlash va
kambag`allikni qisqartirish masalalari bo`yicha Sirdaryo viloyati Boyavut
tumani “Anorzor” mahalla hokim yordamchisi tomonidan sodir etilgan salbiy
xolat yuzasidan o`tkazilgan xizmat o`rganish bo`yicha vazirlikning 25-dekabr
kungi 20-3 - sonli xullosasi muhokamasi.

(M.Nematillayev, B.Ruziboyev, T.Niyozmatov, M.Nematillayev)

Yig`ilishni Chortoq tuman Kambag`allikni qisqartirish va bandlikka
ko`maklashish bo`limi boshlig`i M.Nematillayev ochib u so`z so`zida
vazirlikni Sirdaryo viloyati Boyovut tumani “Anorzor” mahalla hokim yordamchisi
Shukurov Nodir Alimovich tomonidan sodir etilgan salbiy xolat yuzasidan o`tkazilgan
xizmat o`rganish bo`yicha berilgan 2023-yil 25-dekabr kungi 20-3-sonli xulosani
o`qib eshittirdi. Bunda ushbu hokim yordamchisi o`ziga birlashtirilgan mahallada kredit
oluvchi fuqorolarni “Xunarmand usta xizmati” MCHJ raxbari A.Tojiboevdan u
raxbarlik qilayotgan jamiyat bilan 4 ta xolatda **124 million** so`mlik shartnoma qilib
berish evaziga shartnoma qiymatidan kelib chiqib kelishilgan 5 foiz yaniy **6,2 mln**
so`m miqdoridagi pul mablag`ini o`zini boshqaruvidagi oq rangli davlat raqami 20 X
705 DA bo`lgan “Neksiyaa-2” rusumli avtomashinasida olayotganida xuquqni

muxofaza qiluvchi orginlar tomonidan ashyoviy dallilar bilan qo'lga olinganligi aytib o'tti. Bunday noxush xolatlarni viloyatimizda faoliyat yuritib kelayotgan hokim yordamchilari orasida sodir etilishini oldini olish zarurligi xaqida gapirdi.

Chortoq tuman Kambag'allikni qisqartirish va bandlikka ko'maklashish bo'lim xodimlarini muomila madaniyati fuqorolar bilan xushmuomilada bo'lishligi korrupsion xolatlarga yo'l qo'ymasligi yuzasidan tegishli ko'rsatma va topshiriqlar berdi. Shundan so'ng so'zni bo'limning Davlat mehnat xuquq inspektori T.Niyozmatovga berdi. U o'z so'zida yaqinda tizimda yo'l qo'yilgan korrupsiyaviy xolatni gapirib tizimda faoliya yuritib kelayotgan barcha xodimlar hokim yordamchilarini o'z vazifasiga xalol va vijdonan yondoshish zarurligini xar bir xodim doimiy ravishda nazoratda ekanligini gapirdi.

Yuqoridagi xolatlardan ko'rinib turibdiki viloyatimizda faoliyat yuritib kelayotgan tizim tashkilot raxbar va xodimlari o'rtasida profilaktik tadbirlar va targ'ibot tashviqot ishlarini kuchaytirish va xar bir xodimlarni uz vazifasiga vijdonan yondoshishi, korrupsion jinoyatlarning sodir etilishiga imkon bergan shart-sharoitlarni bartaraf qilish, jazo muqarrarligi xaqida tushintirish ishlarini ko'chaytirish bo'yicha topshiriqlar berildi.

Kun tartibi bo'yicha masalani ko'rib chiqib, bildirilgan taklif va mulohazalarni hamda fikrlarni inobatga olib yigilish

Q A R O R Q I L A D I :

Mahallada tadbirkorlikni rivojlantirish, aholi bandligini ta'minlash va kambag'allikni qisqartirish masalalari bo'yicha Sirdaryo viloyati Boyavut tumani "Anorzor" mahalla hokim yordamchisi tomonidan sodir etilgan salbiy xolat yuzasidan o'tkazilgan xizmat o'rganish bo'yicha vazirlikning 25-dekabr kungi 20-3-sonli xullosasi muhokamasi ijro uchun qabul qilinsin.

- bir kun muddatda **shaxar va tuman** Kambag'allikni qisqartirish va bandlikka ko'maklashish bo'limi xodimlari va xokim yordamchilaridan korruttsiyaviy xolatlarga yo'l qo'maslik, korrupsiyaviy xolatlarga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish, ijro intizomiga roya kilish bo'yicha bosh boshqarma boshlig'i nomiga "**Kafolat xat**"lari va yillik "**deklarattsiya**" shaklini olish.

- bo'limlari va kasb-xunarga o'qitish markazlarida yuqoridagi holatlarni xodimlar o'rtasida muhokama qilish, "Korrupsiyaga qarshi kurashish" bo'yicha yillik ish reja va targ'ibot tadbirlari o'tkazish reja grafigini yetkazish vazifasi yuklatilsin.

- "Korrupsiyaga qarshi kurashish" targ'ibot tadbirlari muntazam ravishda OAV va ijtimoiy tarmoqlarda yoritib borish choralari ko'rsin.

Bo'limning Ish yurutuvchisi (Z.Otaboyeva)ga mas'ullarning topshiriqlar ijrosi yuzasidan axborot kiritish vazifasi yuklatilsin.

Ushbu bayonning ijrosini nazoratini zimmamda qoldiraman.

Bayonlashtiruvchi :



Z.Otaboyeva



